

Bugun 2 iyul - “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganiga 30 yil to‘ldi.



Bugun 2 iyul - “O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilinganiga 30 yil to‘ldi.

Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi qabul qilinganligining 30-yilligiga bag‘ishlab shahrimizdagi Yoshlar markazi oldidan San‘at saroyi hududigacha bo‘lgan “Barkamol avlod”, “Islom Karimov”, “Hakim at Termiziy” va “Ibn Sino” nomidagi markaziy ko‘chalar bo‘ylab "Avto karvoni" tashkil etildi.

Shundan so‘ng Termiz shahridagi muhtasham San‘at saroyida “Olamni mahliyo aylagan diyor!” shiori ostida viloyatning asosiy bayram tadbiri o‘tkazildi.

Bayram tadbirida davlat va jamoat tashkilotlari, nuroniylar, madaniyat va san‘at

sohasi vakillari, yoshlar, keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar, huquq tartibot idoralari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi.

Tantanali tadbirda san'at ustalari va vohaning taniqli xonandalari o'zlarining sho'h kuy-qo'shiqlari hamda vatanni madh etuvchi taronalari bilan bayram qatnashchilariga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

